

**Marg‘uba Baratova Komiljon qizi
Toshkent Davlat Texnika Universiteti
Neft va gaz fakulteti 3-bosqich talabasi
+998945739008**

ABDULLA QODIRIY IJODI BUGUNGI KUN MAVZUSI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada buyuk jadid Abdulla Qodiriy ijodi va milliy ruh masalasi ko‘rib chiqiladi. Xususan uning eng mashhur romani bo‘lmish “O‘tgan kunlar” romani qahramonlarining o‘ziga xosligi ilmiy muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: Abdulla Qodiriy, roman, adabiyot, millat, ma’naviyat, tarix.

KIRISH

Abdulla Qodiriy o‘z davrining ilg’or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg’urdi. Zamon taloto‘plari adib qalbini iztirobga soldi. “O‘tgan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg’otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga yo‘liqtirgan keyingi noahil “xon zamonalari”dan so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ldi.

Romanning ma’no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiysiyoziy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqlolli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

“O‘tgan kunlar” romani bamisolai ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy- ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlanadi.

Romandagi uchlik - oshiq, ma’shuqa va ag’yor, bir qarashda, an“anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbat, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan ko‘rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” - ishq-muhabbat tuyg’usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi.

Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni - Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g’oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

“O‘tgan kunlar” romani mehnatkash xalqqa chuqur hurmat ruhi bilan sug’orilgan. Yozuvchi Hasanali, usta Olim, Saodat, To‘ybeka, Oybodoq singari mehnatkash xalq vakillari obrazlarini mehr bilan tasvirlagan. Jumladan, Yusufbek hojining xizmatkori Hasanali uddaburro, tadbirli, sadoqatli, aqli, g’amxo‘r, vijdoni pok, mehribon - umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo‘ladi.

“O’tgan kunlar” romanida xotin-qizlar obrazi salmoqli o‘rin egallaydi. Yozuvchi xotinqizlarning Kumushbibi, Zaynab, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Saodat, Oybodoq, To‘ybeka, Xushro‘ybibi, Jannat kampir kabi o‘nlab xilma-xil obrazlarini yaratgan. Muallif Homid, Xushro‘ybibi, Jannat kampir, Musulmonqul, Azizbek, Sodiq kabi murakkab obrazlarni ham zo‘r mahorat bilan yaratgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“O’tgan kunlar” romanidagi obrazlarning har biri o‘zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir.

Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” asari - o‘zbek romanchiligining birinchi cho‘qqisidir. Ijodkorning mahorati yana shunda ko‘rinadiki, u o‘zi mansub bo‘lgan xalqning hayotini milliy til vositasida tasvirlayotganida tarixiy hodisalar orqali milliy qahramon va milliy urf- odatlarni bir -biriga o‘yg’unlashtirib yuboradi. Albatta, “...badiiy mahorat chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kugili va qayg’uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so‘zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir.”

Binobarin, adabiy asarlardagi personajlar ma’lum inson shaxsining ifodasi bo‘lib, ularning o‘zlarini ham izhor etib berolmaydigan murakkab ruhiy holatlari muallif nutqi yordamida tasvir etiladi.

Qodiriylaridagi sehrli jozibaning omillaridan biri uning milliy tilidir Adib asar yozish uchun poydevor bo‘ladigan manba qidirgan paytda o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan jozibador, madaniy va go‘zal til shaklini ham izladi. Manbani xalq og‘zaki ijodidan topgan bo‘lsa, bunday til shaklini adabiy tilimizga asos bo‘lgan lajhalarimiz va ularning zahirasi hisoblangan shevalarimizdan izladi va topishga muyassar bo‘ldi. Shu asnoda barcha shevalarimiz adabiy til uchun bitmas-tuganmas xazina ekanligiga amin bo‘lgan holda buni amalda isbotladi.

Aslida sheva mulki hisoblangan leksik birliklarimizni adabiy tilimizga olib kirdi. Holbuki adabiy tilda ularning o‘rni bo‘s edi, ana shu bo‘slikni to‘ldirishda ham Abdulla Qodiriyning xizmati beqiyosdir. Undagi so‘z tanlash jarayoni xuddi rassom surat uchun rang tanlash misoli yorqin aks etgan.

Buni adibning asarlarini o‘qiyotgan paytda his qilasiz. Yozuvchi o‘zbekona sodda so‘zlashuv tarzini romanlariga olib kirib, asarlari tilining jonli va hayotiyligini ta’minladi. Bu o‘zo‘zidan bo‘lgani yo‘q, chunki adibning o‘zi xalq orasida yurib ustachilik, ya’ni uylarning tomini yopish bilan shug’ullandi.

Keyin mahallasidagi tashlandiq yerni tozalab, unga jon bag’ishlab bog’ yaratdi. Oddiy insonlar bilan yaqin munosabat, jismoniy mehnatdan rohatlanish hissida tiniqlashgan aql ana shunday badiiy jihatdan mukammal, kitobxonni o‘ziga rom etadigan asarlarning yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko‘rinib turibdiki, Abdulla Qodiriylaridagi ijodida milliylik ikki yo‘nalishda o‘z ifodasini topadi.

Birinchidan, adib barcha asarlari, xususan, “O’tkan kunlar” romani badiiy niyatiga mavzuni o‘z ona yurti, ona xalqi tarixi, mentalitetidan kelib chiqib ifodalash orqali erishadi.

Ikkinchidan, mavzu, g’oya, obraz yechimi islom ma’rifati hamda jadidchilik ta’limotiga yo‘g’rilgan va bu esa milliylikni yanada chuqurlashtirgan.

ABDULLA QODIRIY SHE'RIYATI

Abdulla Qodiriy esa o‘zining she’riy asarlarida va badiiyatida jadidchilikka oid qarashlarni namoyon etar ekan, xalqqa nisbatan tanqidiy qarashlarini ham she’riy ham badiiy ham publitsistik ruhda bayon etadi.

Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz” nomli she’rida bugungi kunda ya’ni o‘sha davr muhitidan kelib chiqib, davr kayfiyatidan kelib chiqib kishilarning g‘aflatda qolmaslikka, ya’ni rivojlanishga chorlashi yuzasidan chaqiriqlar mavjud. Bunda “Ahvolimiz” deb nomlanishi ham she’rning mana shu kayfiyatini bildiradi.

Aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat va shu kabi jadidchilarning boshlagan ishlari, ilmiy salohiyati va badiiy mahorati bugungi kun o‘zbek adabiyotida, nafaqat o‘zbek adabiyoti balki, dramaturgiya sohasida ham tarixiy ildizlarni, tarixiy rivojlanish bosqichlarini boshlab berib, bugungi kunda ko‘p sohalarning tarixi mana shu kishilar bilan bog‘liq hisoblanadi.

“Ahvolimiz” she’rida Abdulla Qodiriy jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan ishlar va ularga kishilarning befarq ekanligi, aksincha eski odatlarni yoqlagan holatda yangi usul mакtablari taraqqiyot bosqichiga chorlovchi islohotlarga befarq qarab turgan kishilarni qoralaydi va bugungi ahvolimizga bir boqing, ey yoronlar, degan chaqiriq ostida “Ahvolimiz” she’rini bayon etadi va bunda xalqning ilmsizlik yo‘lida ko‘p ezilishi dunyo hamjamiyatida ro‘y berayotgan taraqqiyot ishlaridan ancha chetda qolishi keng tarzda ifodalanadi.

Bu borada bizning qalb ko‘zlarimiz ko‘rdur,g‘aflatda qolib ketayotganligimizning boisi shundan dur, kabi g‘oyalar bilan Abdulla Qodiriy she’riy misralariga jon kirgizgandek bo‘ladi. O‘g‘illarimiz, qizlarimiz bugun odob olmasa, bilim olmasa, kelajakda ular beodoblikda na fan, na bir yaxshi so‘zlash odobiga ega bo‘lurlar va ularning ertangi kuni qanday bo‘lmog‘i mumkin ekanligi yuzasidan choralar ko‘radi va fikrlar ketliga duch keladi.

“Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va aniqligini, kam so‘z bilan ko‘p ma’no berish yo‘sinini qadrlab, yozishda ortiqcha so‘z va jumlalarni qisqartirishdan saboq beradi; yozganini yolg‘iz odamning o‘zigma tushunib, boshqaning anglay olmasligi adibga aslo ma’qul kelmaydi. Shu bosi “Yozg‘uchilarimizg‘a” nomli maqolasida: So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak, yozg‘uvchining o‘zi tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb”.

Bizning ko‘rar ko‘zimiz, so‘zimiz faqatgina shu kundalik turmush sharoitimidza qotibgina qolmasdan balki dunyo bilan hamnafas bo‘lmoqligi lozim kabi g‘oyalar Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz” she’rlarida ko‘rinib turadi. Bunda xalqimizning azaliy urf-odatlari, milliy an‘analarini qadrlash shu bilan birgalikda ularni saqlab qolgan holatda bizning taraqqiyotimizga g‘ov bo‘layotgan yot illatlardan chekinishga chorlaydi. Bunda, har qanday turli holatlar vaziyatlarga munosabat bildirib, she’rni ifodali ravishda chiqiishini ta’minlab beradi. She’r keltiriladi:

“Hamna har kun takalarda nasha, ko‘knori chekib,

Bachchag‘a kokil solib, oh-voh ila o‘ynormiz.

Qarimiz, boylarimiz, balki bu vaqt oqvondamiz,

Nogahon ko‘rsak, agar bir besaqolni qotamiz.

O‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyuvchi,

Biz ani dahriy sanab to‘fangcha birla otamiz”.

Quyidagi she’rda Abdulla Qodiriy jamiyatda o‘z o‘rniga bo‘lgan keksalar, boylar va kishilarning vaqtி ko‘p holatlarda bekorchи ishlar bilan ketmasligi lozimligi, qolaversa, millatni suyishi, vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishishi, bu borada ziyolilar qatlamining yoshlar bilan birgalikda birlashishi keng yo‘l ochib beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumun olganda, Abdulla Qodiriyning nafaqat “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlariyu, “Obid ketmon” qissasi, balki “Ahvolimiz”, “To‘y”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she’rlarida, “Juvonboz”, “Uloqda”, “Jinlar bazmi” kabi hikoyalarida, “Baxtsiz kuyov” dramalarida ham milliy ruh hukmronlik qiladi.

Shuningdek, she’r yakunida chaqiriq sifatida yoshlarni chorlab qolar ekan, kelinglar deya yoshlarga ziyolilikda harakat qilmoq lozimligini, uxlamaslikni, ayni davrda uyg‘oqlikni va kelajak hosilida millatning rivojlanishini ifodalab beradi.

Shu bilan birgalikda, bugungi kundagi ahvolimiz deya qarilarimiz, boylarimiz nogohon ko‘radigan ko‘zlarimiz bo‘lmish kelajak avlodni rivojlanishga chorlaydi va eski odatlardan qutulgan holatda milliy qadriyatlar, urf-odatlarmizni saqlab qolishga chaqiradi. Birgina ahvolimiz emas, boshqa she’rlarida ham mana shunday holatlar ko‘zga tashlanishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Қаҳхор. Асарлар. Т ВИ. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.
2. Ў.Носиров. Ижодкор шахс бадиий услугуб, автор образи. Тошкент: 1981
3. А.Қодирий. “Ўтган кунлар” Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2- том. Toshkent: O‘zbekiston. – 1996
5. Yoshlar ishlari agentligi. “Jadidlar. Abdulla Qodiriy” risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.